

## **KALIFORNIYA QIZIL CHUVALCHANGIDAN ODAM KASALLIKLARIGA QARSHI ZARDOBNING IMMUNOLOGIK TA'SIRI**

**Z.A.Nurova**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali dotsenti

### **ANNOTATSIYA**

*Kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan maxsulot, zardob virusologik toksinli xususiyatlari o'rganilib zararsizlangan holatda shifobaxshligi aniqlandi. Limfotsitlarning xujayraviylikning oshishida yuqori ko'rsatkichga egaligi bilan ajralib turdi.*

**Kalit so'zlar:** *Kaliforniya qizil chuvalchangi, to'shamalar, laboratoriya preparatlari, reagentlar, reagenlar, suv, termometr.*

### **ABSTRACT**

*The product obtained from the California red worm, the virological toxin properties of the serum were studied and found to be curative in the neutralized state. It was characterized by a high rate of increased cellularity of lymphocytes.*

**Key words:** *California red worm, bedding, laboratory preparations, reagents, reagents, water, thermometer.*

### **KIRISH**

Chuvalchanglarda reginiratsiya jarayoni kuchli bo'lib, bo'lingan bo'laklarning tiklanish jarayoni yuqori. Shu tufayli undan olinadigan suyuqliklardan inson tanasi uchun dori–darmon vositasi sifatida ishlatiladi.

Go'ng, begona o'tlar, barglar, daraxt novdalari, apilka, somon, oshxona chiqindilari, o'radagi yuvindilar, qushxona, hayvon chiqindilari, qog'oz karton va boshqalar chuvalchang ovqatidir. Shunga qaramasdan go'ngni to'plab, 4-5 kun suv sepish zarur. Issiq sevar o'lkalarda janubiy regionlarda kuniga uch mahaldan suv sepish zarur bo'ladi. Natijada organika qizib, parchalanish jarayoni yuz beradi. Agar biomassa to'plamiga bo'r kukuni, so'ndirilgan ohak yoki dolomit unidan changlatilsa maqsadga muvofiq. Chunki chuvalchanglar achchiq muxitni yoqtirmaydi. Qurtni binolar ichida ham, ochiq havoda boqsa bo'ladi. Chuvalchangni o'rindiqlarda 30-100 mingtagacha boqish mumkin.

Bir yilda bir o'rindiq (2x1m)da bir tonna gumus tayyorlash mumkin. Chuvalchanglar hayoti uchun 40 foiz to'yimli substrat sarflanadi, 60 % kopromit shaklida biogumus hosil bo'ladi. Shunday qilib bir o'rindiqda yiliga 0,4-0,6 tonna biogumus va 0,1 tonnaga yaqin chuvalchang biomassasi olinadi. Yomg'ir to'planib ko'lmak hosil bo'lmasligi uchun o'rindiqlar biroz nishob uchastkalarda quriladi. Chuvalchangni ayniqsa ko'rsichqondan asrash kerak, ular ashaddiy dushman.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Chuvalchang boqishni qaysi kun va qaysi oyda boshlasangiz ham farqi yo'q. Eng qulay vaqt bahor, kuz va yozdir. Chuvalchanglar ammiak va yuqori haroratga ta'sirchan bo'ladi. Shu sababli, ovqatlanish uchun faqat fermentatsiyadan o'tgan va sovutilgan go'ngdan foydalanish mumkin. Boshqa organik chiqindilar ham chirishi lozim.

Chuvalchang boqish uchun xonaki quyon go'nggi 5-10 kunda, otniki 3-4 oyda, qoramolniki 5-6 oydan so'ng tayyor bo'ladi. Ovqat kam bo'lsa chuvalchanglar chivib ketadi, ovqat ko'p bo'lsa, nafas olish va gaz almashinuvi qiyinlashadi. Doimo chuvalchaglarning ko'payishi va rivojlanishini nazorat qilib turish kerak. Chuvalchaglarni qutilarda, balkon, yer to'la, garajlarda ham boqish mumkin.

Tajriba maydonimiz Oltinsoy tumanining "Chep" va "Guliston" maxallasi bo'lib, ozuqaga boy bo'lgan biogumus yetishtirish bilan bir vaqtda odam kasalliklari uchun yetilgan kaliforniya qizil chuvalchangini ajratib olinadi, fiksatsiya qilinadi so'ng filtratsiyadan o'tkazilib qurutqich shkafga qo'yiladi. Qizil chuvalchang 48 soat pechda qurigandan so'ng maxsus asbob orqali tuyiladi va un holatiga keltiradi. Bu namuna 12 mg olinib kolbaga solinadi ustidan kerakli bo'lgan reaktivlar qo'shiladi va termostatga qo'yiladi. Temostatda stirilizatsiya qillinganga gelment suyuqligi tarkibiga gelmentdan olingan qon suyuqligi qo'shiladi va u sentrafugalanadi.

Bu namunadan olingan zardobni immunologic tekshiruvdan o'tkaziladi va odamning immune tizimiga tasir darajasi o'rganiladi. Bu tajriba asosi shuni ko'rsatdiki odam kasalliklarga qarshi kurashishda 11 xil kasalliklarni oldini olishdagi zardob tayyor bo'lganini ko'ramiz va patologik belgilarni kuzatamiz. Bu zardob "NURZAM" virusli infeksiyon kasalliklarni oldini olishda gepatit-a gepetit-b infeksiyasini oldini olishda eng kuchli vosita hisoblanadi.

Kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan namunadan "AZAMZAR" krem mazni laboratorik usulda tayyorlandi va teri kasalliklariga Leshmanioz, Vitsiliga, pisoriaz, allergik toshmal kasalliklarni oldini olishda ishlatiladi. Gemotologik ko'rsatkichlar statistik malumotlarga ko'ra 15% yuqori ekanligi isbotlandi. Inson organoizmida eritrotsitlarni hosil bo'lishi, hujayraviylikni oshishi muntazam yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

## **XULOSA**

Kaliforniya qizil chuvalchangidan yetiltirilgan namunalardan o'n bir xil kasalliklarga qarshi zardob va krem maz ishlab chiqildi va inson salomatligi uchun barqaror mexanizm vositalari yo'lga qo'yildi. Qon ya'ni gemolitik gemotologik animiyani oldini olishda eritropoez qon rag'batlanishiga keng yo'l ochildi va texnologik resurslardan foydalanib ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

## REFERENCES

1. N.K.Belamurov. “Полезные калифорнские черви” Москва 2020 год
2. Ч.Н.Виноградский Почвоведение и биогумос Москва 2018 год
3. В.В.Кауричев “Почвоведение” Москва 1998
4. Nurova, Z., Musurmonova, A., Noxidirova, Z., Xo'janazarova, S., & Normatova, S. (2023). ODAM KASALLIKLARIGA QARSHI ZARDOB ISHLAB CHIQRISHNING IMMUNOLOGIK KO'RSATKICHLARI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 3(1 Part 3), 93-95.
5. Nurova, Z., Hamidbayeva, M., Urazova, Z., Tog'ayeva, G., & Rashidov, A. (2022). VIRUSALOGIC INDICATIONS OF SERUM FROM THE CALIFORNIA RED WORM. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(12), 287-289.